



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar- iyul

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi 3281,1 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 128,3 % ni tashkil etdi.
- Savdo xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 37,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1210,7 ming.so'mni tashkil etdi.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanish darajasi jamiyatning ilg'or rivojlanishining mezoniga aylandi.

Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholining turmush darajasini, investitsion muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilaydi.


Mamlakatda amalga oshirilgan islohotlar ko'rsatilgan bozor xizmatlarining oshishiga olib keldi. 2018 yil yanvar-iyul oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3281,1 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulush savdo xizmatlari (37,6 %), transport xizmatlari (19,5 %), moliyaviy xizmatlar (9,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (7,7 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi,%




2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (28,3 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (21,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (17,8 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (13,8 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar - 133,4 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati – 105,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari—116,1 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar - 104,1 % ni tashkil etgan.

2018 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1210,7 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28